

## **Lecture 5. The classification of innovation and their peculiarity.**

### **Ma'ruza 5. Innovatsiyalarning sinflanishi va turlanishi.**

Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarish innovatsiyani chuqur o'rganishga bog'liq. Bu yerda ularni terlab olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yangiliklar texnologik o'lchamlari va bozor holatidan kelib chiqadi.

Mahsulli innovatsiya o'z ichiga 3 ta yangi mahsulotni ilishi zarur: yangi material, yangi yarim fabrikat va butlovchi materiallarni oladi.

Progressiv innovatsiya bu ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usulidir. Progressiv innovatsiya sharoitida korxonalar (firma) tashkiliy boshqaruv tuzilishida alohida bo'lim tashkil etilishi mumkin. Innovatsiyalar bozorga yangiligiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. Jahonda tarmoq uchun yangi;
2. Mamlakatda tarmoq uchun yangi;
3. Aniq korxonalar uchun yangi;

Tizimdagi o'rni bo'yicha innovatsiyani quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Innovatsiyaning korxonaga kirib kelish davri (xomashyo, material, mashina va qurilma, axborot va boshqalarni tanlash va foydalanishdagi o'zgarishlar).
2. Innovatsiya korxonadan chiqib ketish davrida (mahsulot, xizmat, texnologiya, axborot va boshqalar).
3. Korxonalar tizimi tarkibidagi innovatsiya (boshqaruv, ishlab chiqarish va texnologiya).

Kiritilayotgan o'zgarishlarning myrakkabligiga bo'linadi;

1. Radikal (bazis);
2. Yaxshilangan;
3. Modifikatsiyalashgan innovatsiyalarga bo'linadi;

Ilmiy tekshirish institutlarda tadqiqotlar tizimi yuzasidan korxonalar faoliyati doirasida

Innovatsiyani kengaytirilgan turlarini ishlab chiqilgan. Shunga ko'ra yuqoridagi belgilari bo'yicha innovatsiya quyidagilarga bo'linadi;

1. Texnologik innovatsiya.
2. Ishlab chiqarish jarayonidagi innovatsiya.
3. Iqtisodiy innovatsiya.
4. Tijorat (savdo) innovatsiya.
5. Ijtimoiy innovatsiya.
6. Boshqaruv sohasi darajasida innovatsiya.

Innovatsiyani to'liq turlanishini rus olimi A.I.Prigojin yetarli darajada ifoda etadi.

1. Tarqalishi (tarqaluvchanligi) bo'yicha;
2. Yagona diffuz (singdirish, yeyilish) bo'yicha;
3. Ishlab chiqarish siklidagi o'rni bo'yicha:
  - xomashyo;
  - bog'lovchi;
  - mahsuli;
4. Vorislik bo'yicha (aralashuvi, bekor qiqlinishi, qaytarilishi, ochilishi, retrovedeniye).
5. Bozor ulushini kutilgan darajada egallashi bo'yicha:
  - local;
  - tizimli;
  - strategik;
6. Innovatsion imkoniyatlari bo'yicha va yangilik darajasi:
  - radikal;
  - kombinatsiyalashgan;
  - takomillashgan.

Oxirgi 4 va 5 yo'nallish innovatsiyaning masshtabi, yangiligi, o'zgarishining jadalligi va ma'lum bir

miqdorda son va sifat jihatlari fazilatlarni ifodalay olishi bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada N.D. Kondrat'ev 1920- yillarda alohida izlanishlar olib boragan, u ko'plab jarayonlarni asoslab bergan, qisqa sikllik 3-3.5, (o'rta) savdo sanoati (7-11), katta sikl (48-55) yilga mo'ljallangan konseptsiyasi quyidagi asosiy qismlardan iborat.

Katta siklni asoslashda Kondrat'ev keng doiradagi ma'lumotlarni tahlil etib chiqdi. Bu jarayonda Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH kabi yirik to'rt davlatning statistik ma'lumotlari tahlil etildi. Bu yerda bahoning dinamikasi, capital farqi, ish haqi, tashqi savdo hajmi, asosiy fondlar kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish dinamikasi umumjahon ishlab chiqarishi indeksida o'rganildi. Tahlil etilgan davr 140 yilni o'z ichiga oldi, natijada shuni ko'rsatdiki siklning erkin davomiyligi 48-55 yilga to'g'ri keldi. N.D. Kondrat'ev iqtisodiy kon'yukturaning tebranish davrini empirik qonuniyatlarini aniqladi. Bu yerda bosh e'tiborni ilmiy-texnik innovatsiyaga qaratdi.

N.D. Kondrat'evning tavsiyalari kelgusida innovatsion strategiyalarni ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

**Sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlanish strategiyasini o'rganish**

<b>№</b>	<b>Tavsif (xarakteristik)</b>	<b>XX asr oxiri</b>	<b>XXI asr boshlari</b>
1	Jamiyat taraqqiyotining strategiyasi	Texnokratizm, turli shakllarda sarmoya jamg'arish, turmush darajasini oshirish (ko'rsatish)	Politsentralizm, antrotsentralizm, aqlni o'stirishga vositalar kiritish (qo'yish)
2	Ideologiya (mafkura)	Shaxsiyatning qadriyati va o'rnini tizim orqali aniqlangan	Inson imkoniyatlarini ozod bo'lishi, insonparvarlik shaxsni har tomonlama rivojlanishi
3	Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishni ustunligi	Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatini taraqqiy ettirish	Iqtisodiyot tizimini saqlab qolish, xalq farovonligini oshirish
4	Axborotlar texnologiyasi	Mikro elektro texnika, sun'iy yo'ldosh aloqasi Internet asosida	DVD yangi axborotlar tashuvchilar, uch o'lchamli optic-elektron xotiralar asosida
5	Yetishtirilgan mahsulotning nomi	Keng, ajratilgan (diversifikatsiya)	Umumiy miqdori bo'yicha va korporatsiya ko'lamida kengaytirish
6	Mahsulotning hayotiy kamayishi	2 yildan 5 yil gacha (kompyuterlar bo'yicha 1 yil)	2 marotaba (baravar) kamayish
7	Standartlashtirish	Mahsulotning xavfsizligi va sifatini boshqarish jarayoni barcha pag'onalarda iqtisodiy huquqiy tartibga solish	Xalqaro, yevropa, milliy hududiy, firmali standartlarning tizimi va miqdorini kengaytirish
8	Innovatsion faoliyatning	Mahsulotlarning hayotiy	Global innovatsion

	yiriklashishi	davri, texnoparklar, texnopolislar, boshqa shakllar bo'yicha integratsiya	loyihalarning ishlanmasi. Global strategiya asosida xalqaro integratsiya
9	Raqobatning turlari	Raqobatning sof ustunligi	Piperaqobat (ilg'or raqobat)ning taraqqiy etishi
10	NIOKR ga sarf – xarajatlari	YAIM dan 2,5-3,5 %	YAIM dan 3,7 %, sotuv xajmi va patentlar almashuvini o'sishi
11	Ishlab chiqarish turlari	Yirik seriyada, ko'plab avtomatik ishlab chiqarish	Integrallashgan ishlab chiqaruvchi avtomatlashtirilgan modullar va tizimlar
12	Ishlab chiqarish texnologiyasi	Moslashuvchan ishlab chiqarish tizimi va boshqalar asosida uzlukli jarayonlarning afzalligi (ustunligi)	Mikroelektroniklar, biotexnologiyalar ishlab chiqarishning chiqindisiz avtomatlashgan sharogenik muxandislik asosida
13	Ishlab chiqarishni tashkil etish shakli	Ishlab chiqarishning barcha ierarxik pog'onalarida konsentratsiya, ixtisoslashish, kooperatsiya va murakkab shakllari	Xalqaro ko'lamda transnatsional korporatsiya. Xalqaro milliy kompaniyalar ishlab chiqarishni global

Agarda innovatsiya bozorida yoki ishlab chiqarish jarayonida joriy etilsagina, u amalga oshirilgan hisoblanadi. Mos ravishda ikki tip texnologik innovatsiyalar farqlanadi: mahsulotli va jarayonli.

Mahsulotli innovatsiya yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulotlarni qo'llanilishi qamrab oladi. Jarayonli innovatsiya – bu yangi yoki yanada

mukammallashtirilgan mahsulotni o'zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish (1 – jadval).

Yangiliklar va innovatsion jarayonlarni tasnifi (klassifikatsiyalri): innovatsion jarayonining o'ziga xos xususiyati bo'yicha (tashkilotni ichida, tashkilotlararo); mazmuni bo'yicha (texnik, tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy); ishlanmaning darajasi va tarqalishi bo'yicha (davlat, respublika, hudud, tarmoqlar, korporativlar, firmenli);

Ishlanma va tarqalish sohalari bo'yicha (sanoat, moliya, xizmatlar, savdo-vositachilar, ilmiy – pedagogik, huquq); salohiyati bo'yicha (keskin, aralash, boshqa shaklga o'tish); hayotiy davri bo'yicha (texnologiya, Tovar, tashkilot); innovatsion jarayonning bosqichlarining davomiyligi bo'yicha.

Bozor mexanizmi mahsulotlar – yangiliklarga murojat uchun xizmat ko'rsatadi va uni boshqarishning amalidir. Birvaqtda u yangiliklarni yaratuvchilar va tadbirkorlarga ta'sir ko'rsatish uchun foydalaniladi. Mahsulotlar – yangiliklar quyidagi turlarda bo'ladi: yolg'iz (yagona, birgina), ob'yektli (mavjudodli), tayanchli (asosli) va dasturli yangiliklar (2-jadval)

#### **Yangilik bozorining mahsulotli kesimi**

No	Innovatsion mahsulotning turi	Mahsulotning tavsifi (xarakteristikasi)
1	Birinchi yangilik	Eng ommaviy innovatsion mahsulot. Ma'lum hayotiy muddati va ma'naviy eskirishi bilan bog'liq. Intellektual faoliyatning mahsuli bo'lgan eng ommaviy innovatsion mahsulot.
2	Ob'yektli yangilik	Texnika va texnologiya taraqqiyotining ma'lum darajada ifodalovchi va yangi iste'mollik bahosini tashkil etuvchi, bir qancha o'zaro bog'liq yangiliklar.
3	Tayanchli yangilik	Yangi mahsulotga yoki yangi sifatni iqtisodiyotni o'sishi bilan bog'liq majmui o'zaro ta'sir etuvchi yangilik
4	Dasturli yangilik	Hatto o'zini almashtirguniga qadar, yangi iste'molni ta'minlovchi majmui yakka ob'yektlar va tayanch yangiliklar

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Abdullayev, A.E.Teshabaev va b. "Innovatsion menejment" o'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" nashriyoti . 2015

2. и.ф.д., проф. Р.Р.Хасанов. Инновацион таракқиётнинг мазмуни, инновация турлари ва инновацион жараёнлар қонуниятлари. Презентации.
3. S.G'ulomov, G'.Qosimov va b. "Strategik va innovatsion menejment" darslik. Toshkent – 2013.
4. Nazarova F.X. , Ziyayeva Sh.Sh. "Innovatsion menejment". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2018